

YOZUVCHI SAID AHMADNING “KELINLAR QO’ZG’ALONI” HAJVIY ASARIDAGI AYRIM FRAZELOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

G’ANIJONOVA SEVINCHXON G’AYRATJON QIZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7575603>

Annotatsiya: Hozirgi o‘zbek tilshunosligidagi tilshunosligidagi til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini komgnitive nuqtayi nazardan tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda. O‘zbek milliy adabiyotidagi frazeologik birliklarni tadqiq etish orqali o‘zbek milliy madaniy dunyo qarashini erkinroq aks ettirish mumkin. Ushbu ilmiy maqola orqali Said Ahmadning “Kelinlar qo‘zg‘aloni “ hajviy asaridan olingan ayrim iboralar va ularning mazmuni hamda tuzilishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Tayanch so‘zlar: Frazeologik birliklar ,ibora ,iboralarning mazmuni va ifoda planlari ,iboralarning ichki tuzilishi.

Ma’lumki til fanining iboralarni o‘rganadigan bo‘limi frazeologiya deb ataladi. Iboralar lingvistik terminologiya tili bilan aytsak frazeologizmlardir.

Frazeologizm qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib frasis-ibora logos-tushuncha ta’limot demakdir. Frazeologizmni tilning leksik semantik va sintaktik va sintaktik sathlaridan farq qiluvchi alohida sathga xos birlik deyish frazeologik normani ham adabiy tilning boshqa normalari qatorida hisobga olishni talab etdi. O‘zbek tilining frazeologizmlari ham 5 jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da (2006-2008) va 1 jildlik “O‘zbekcha – ruscha lug‘at” da (1988) birmuncha to‘laroq aks etgan bo‘lsa-da bu lug‘atlarda ham o‘zbek tilidagi barcha iboralarni qamrab olgan deb bo‘lmaydi. Frazeologizmlarning o‘rganilish tarixi haqida gapirganda , “frazeologiya” atamasi “frazza “ so‘zidan olingan bo‘lsa-da ,turkiyshunoslikda dastlab bu atama turli ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan.

Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya’ni avvaldan tayyor bo‘lmagan) so‘z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Idioma ,frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o‘rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko‘plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma’noda tushunadilar. Uni keng ma’noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba’zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya’ni frazeologiyani keng

ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda. Turli xususiyatlarga ega bo'lgan F. lar majmui tilning frazeologik qatlamini tashkil etadi. Tilning frazeologik qatlami doimiy ravishda yangi F.lar bilan boyib boradi va xalqning madaniytarixiy tajribasini, shuningdek, muayyan tilning tarixiy taraqqiyot qonunlarini aks ettiradi. F.larni o'rganish va tasnif qilish bilan frazeologiya shug'ullanadi.

Iboralar ham ifoda va mazmun planiga ega. Sodda morfemalarda uning ifoda plani deb uning tovush tizimiga aytilsa yasama leksemada uning tarkibidagi leksema va morfema nazarda tutiladi Masalan:(chilik . chi- lik) kabi. Ibora yirik til birligi bo'lib kammida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar (leksemalar) shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi. Tarkibli morfemalarning, leksemalarning ma'nosi odatda uni tashkil etuvchi til birliklariga xos ma'nolarining yig'indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma'nosi asosida butun ma'nosi tushuniladi. [Shavkat Rahmatullayev]"o'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" o'qituvchi nashriyoti Tosh-1917 kirish -5 betlar].

Frazeologik birlik ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan ,ma'noviy juhatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan barqaror bog'lamalarning umumiy nomi.

Frazalarning quyidagi turlari farqlanadi:

- Frazeologik chatishma-frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi:oyog'ini qo'lga olib chopmoq
- Frazeologik birlashma – frazemaning ma'nosi uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanadi shu ma'nolar asosida umumlashtiruvchi ko'chma ma'no ifoda qilinadi :yog' tushsa yalagudek
- Frazeologik birlashma – bunda frazemalar tarkibidagi bir so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi ,boshqasi esa o'z lug'aviy ma'nosini saqlaydi:gapning tuzi

F.lar, shaklan o'zlariga o'xshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutkda suzlarni erkin tanlash, almashtirish yo'li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma'no va muayyan leksikgrammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qullanadi, ya'ni F. tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas: anqoning urug'i, arpasini xom urmoq, chuchvarani xom sanamoq, terisiga sig'may ketmoq, kapalagi uchmoq, kungli joyiga tushmoq, qo'li ochiq, qulog'i og'ir va boshqa F.lar

tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi.

Asrlar davomida shakllangan F.lar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o'tkir, ta'sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Yozuvchilar o'z asarlarida F.lardan unumli foydalanish bilan birga mavjud F.larni asar ruhiga moslagan holda qisman o'zgartiradilar, shu yo'l bilan yangi iboralar yaratadilar. Abdulla Qahhor, Oybek, G'afur G'ulom, Said Ahmad va boshqa tomonidan ijod qilingan F.lar bunga misol bo'la oladi..Shu yo'l bilan iboralar yaratadilar .Ibora bu biror tushuncha yoki gapning bir so'z bilan ifodalanishi hisoblanadi

1.Balki bir- birlaring bilan til topishib ketarsizlar.[1976;2] – bu gapda fraza bir-birlaring bilan chiqishib ketarsizlar;ma'nosi-kelishib ,tushinib ketmoq ;tarkibi-ot+ravishdosh+fe'l

2.Bir ikki oy o'tsin qolipingizga solib olasiz [1976;3] – bu gapda fraza qolipingizga solib olsiz ;ma'nosi- moslashtirib olmoq; tarkibi- ot+ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi

3.Ayamga osonlikcha jilovini tutqazib qo'ymaydi[1976;3]-bu gapda ibora jilovini tutqazib qo'ymaydi;ma'nosi-egilmaydi , bo'ysunmaydi ; tarkibi - ot+ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi

4.Pildirpis qilib o'tadi[1976;4].manosi – jim o'tmoq indamay o'tish tarkibi-ravish +fe'l

5.Otaginang shundoq Azim Sher bo'lib bir gapni ikki qilgan emas[1976;6] - ma'nosi so'zsiz bajargan; tarkibi-son +ot+ son+fe'l

6.Nega indamaysan ?Og'zinga talqon solganmisan?[1976;6]-ma'nosi-indamaslik bir so'z demaslik ; tarkibi ot +ot+fe'l

7.Doim shunaqa tuz qo'shilmagan gaplarni topasiz.[1976;16]-bu gapda ibora tuz qo'shilmagan gap; ma'nosi-hech kim aytmagan ,g'alati gaplar ;tarkibi- ot +sifatdosh+ot

8. Chiti ham bo'laveradi.Teshib chiqmaydi.[1976,14]- bu gapda ibora teshib chiqmaydi;ma'nosi-hech narsa qilmaydi;tarkibi-yetakchi fe'l+ko'makchi fe'l

9.O'zingdan o'tganini o'zing bilasan.[1976;14] ma'nosi- kimnidir hech kim tushunmasligi, dardiga sherik bo'lolmaslik ;tarkibi- ot + sifatdosh+ot +fe'l

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlar-yu, turmushini, dunyoqarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida frazeologik iboralardagi darajalanish, giponimiya, ierarxonimiya kabi semantik munosabatlarni o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda

References:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. «O'qituvchi» nashriyot. Toshkent 1978-yil.
2. Said Ahmad “Kelinlar qo'zg'aloni” 1976 yil
3. Erkaboyeva N., O'zbek tilida ma'ruzalar to'plamini. «Yosh kuch» Toshkent 2021.
4. Расулов Р. Умумий тилшунослик. -Тошкент, 2007/2010